

## **AYOLLAR IJTIMOIY MOSLASHUV MARKAZLARINING FAOLIYATI**

***Xoljigitova Dinara Muzaffar qizi***

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali*

*Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi*

***Sabirova Surayyo Farxod qizi***

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali*

*Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi*

***Ilmiy raxbar: Abbosova Maftuna Subxonovna***

*Raqamlı texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi, P.h.D*

*Maqsad – jamiyatda ayollar va erkaklarning  
teng huquqliliginini taminlash, ayollarga nisbatan  
tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlar uchun Ayollar ijtimoiy moslashuv markazlarining tashkil e'tilishi, bugungi kunda olib borilyotgan yangi islohatlar.

**Kalit so'zlar:** Moslashuv markazlari, zo'ravonlik, tazyiq, himoya, gender tenglik, ayollarga imtiyozlar, "Ayollar daftari".

### **Kirish**

Ayolning baxtli bo'lishi nafaqat oilada, balki butun jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazadi. Uni e'zozlagan va hurmat qilgan millatning kelajagi bardavom bo'ladi. Zero, bugun yurtimizda ayollarga jahon davlatlarining hech birida kuzatilmagan ehtirom va hurmat ko'rsatilmoqda, ammo jamiyatimizda ba'zi ayollar hayotning ma'lum bir bosqichida og'ir vaziyatga tushib qolmoqda, shunday vaqtida ular o'zini davlat himoyasida ekanligini his etishlari va o'z haq huquqlaridan to'laqonli foydalanishlari uchun turli xil islohatlar amalga

oshirilmoqda. Bu islohatlar, O'zbekistonga ilk ayollar ijtimoiy moslashuv markazlarining tashkil etilgani bilan boshlangan bo'lsa. "Ayollar maslahat markazi", "Ayollar va bolalarni ijtimoiy himoyalash" markazlarining tashkil etilgani xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi.

Zotan, mazkur markazlar xotin-qizlar o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, ularning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklarini himoya qilish, oila institutini rivojlantirish kabi ezgu maqsadlarga xizmat qilayotir.. Bunday markazlarni tashkil etish haqida O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida so'z yuritildi. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan dastlab Namangan va Sirdaryo viloyatlarining barcha tumanlari va shaharlarida "Ayollar ijtimoiy moslashuv maslahat markazi" ish boshladi.

Bugungi kunga qadar respublika bo'ylab jami 130 ta markazlar faoliyat yuritib, zo'ravonlikdan jabr ko'rgan ayollarga zarur psixologik, huquqiy, ijtimoiy va tibbiy yordam ko'rsatib kelmoqda. Markazda 6 ta xona - bolalar xonasi, oshxona, yuvinish xonasi, yotoqxona bor. Shuningdek, ayollarga tibbiy ko'mak beruvchi muolaja xonalari bor bu markazda ayollarga moddiy tomonidan ham yordam ko'rsatiladi. Ayollar o'z muammosini hal qilgunicha shu markazda yashashi ham mumkin bo'lib, qanday muammoli vaziyatda qolganiga qaramay, bu markazlarga qabul qilinadi.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar quyidagi huquqlarga ega bo'ladi.

O'ziga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etganligi yoki ularni sodir etish taxdidi to'g'risidagi ariza bilan tegishli vakolatdagi organlarga hamda tashkilotlaga hamda sudga murojat etish;

Maxsus markazlarda shuningdek bepul telefon liniyasi orqali tekin xuquqiy maslahat, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olish;

Ichki ishlar organlariga ximoya orderi berish to'risidagi talab bilan murojat qilish, himoya orderi shartlari buzilgan taqdirda esa, ularni bu haqida xabardor qilish;

Sodir etilgan tazyiq va zo'ravonlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy zararning o'rni koplanishi hamda manaviy ziyon kompensatsiya qilinishi to'g'risidagi talab bilan sudga murojat etish;

Tazyiq va zo'ravonlikdan zabrlanuvchi yetkazilgan moddiy zararning o'rnini qoplash hamda manaviy ziyonni kompensatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojat etganda davlat boji to'lashdan ozod qilinadi;

Markazning asosiy vazifalari etib: tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan, o'z joniga suiqasd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordamlar ko'rsatish; og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolar va turmushida zo'rlik ishlatilishiga duch kelgan xotin-qizlar huquqlarining kafolatlarini ta'minlashga ko'maklashish; davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining xotinqizlarning o'z joniga qasd va suiqasd qilish holatlarini o'rganish, bunday holatlarning oldini olish, shuningdek, o'z joniga suiqasd qilgan xotin-qizlarni normal hayotga qaytarish bo'yicha faoliyatiga yaqindan ko'maklashish; «Ayollar daftari»ga kiritilgan psixologik va huquqiy maslahatga muhtoj xotinqizlarni (tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan, ijtimoiy muammolari mavjud xotin-qizlar) har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularni «Ayollar daftari»dan chiqarish choralarini ko'rish kabi vazifalar yuklatilgan.

Bugungi kunda xotin-qizlarni qiynayotgan ko'plab muammolarning ildizi ular bilimlarining yetishmasligi, o'z huquqlarini yetarli darajada talab qila olmasligiga borib taqaladi. Afsuski oiladagi ajrimlar, kelishmovchiliklar sabab uysiz, joysiz qolayotgan, hattoki bolalarning ta'minoti uchun ham pul talab qila olmayotgan ayollarimiz bor oramizda. Jamiyat va davlat buning oldini olish uchun nimalar qilishi kerak?

Avvalo, qizlarimizning ta’limiga, bilim olishiga, kasb egallashiga katta e’tibor qaratish, ular o’rtasida turli mavzularda kengtushuntirish ishlarini muntazam ravishda olib borish zarur, xotin-qizlarni hayotga tayyorlashda barcha tizim birdek javobgar bo’lishi kerak. Bunga butun bir jamiyatni jalg qilishning uddasidan chiqilsa, ayollar masalasi bilan shug’illanadigan maxsus idoraga yoki tashkilotga ham hojat qolmaydi.

Shuni unutmasligimiz lozimki ayol, avalambor, ona. Farzandlariga chiroyli tarbiya, go‘zal xulq berish – ularning kasbi. Ularning maqomi, martabasi shu bilan o‘lchanadi. Binobarin, mamlakat taqdiri shunga bog‘liq ekan unga befarq qarashga hech kimning haqqi yo‘q.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O’zbekiston Respublikasi Qonuni 02.09.2019 yildagi O’RQ -561-son
2. <https://strategy.uz/index.php?news=879&lang=uz>
3. <https://advice.uz/oz/document/2386>